

**“O‘ZBEK TILINING SOHADA QO‘LLANILISHI” FANINI O‘QITISHDA
INNOVATSIYON MASHG‘ULOTLAR**

Ikrom Xolmuratov

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalari
universiteti Nukus filiali dotsenti,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).Annotatsiya:*

Maqolada “O‘zbek tilining sohada qo‘llanilishi” fanini o‘qitish jarayonida talabalarga rasmiy uslublarni o‘rgatish bilan birga, ularni mashg‘ulotlarda faol ishtirok qilishlari uchun innovatsiyon mashg‘ulotdan mavzuga mos ravishda qo‘llash imkoniyatlari haqida ma‘lumotlar berishga harakat qilindi.

Kalid so‘zlar: innovatsiyon mashg‘ulot, so‘zlarni boyitish, mening ham o‘z fikrim bor, omadli chipta, kredit moduli, rasmiy-idoraviy uslub.

Menga aytasang unutaman, menga ko‘rsatsang eslab qolishim mumkin, o‘zimga ishlashga imkoniyat ber, shunda u – batomom meniki bo‘lib qoladi.

(Xitoy xalq maqoli).

Bugun oliy ta‘lim tizimida talabalarga “O‘zbek tilining sohada qo‘llanilishi” fanini o‘qitishda bo‘lajak filolog va nofilolog mutaxassislarning quyi bosqichlarda o‘zbek tilidan egallagan nutqiy faoliyat turlari: tinglab tushunish, gapirish, o‘qish va yozish malakalarini rivojlantirish; ijtimoiy-madaniy, rasmiy-idoraviy sohalarda, mehnat faoliyatida o‘zbek tilining kommunikativ imkoniyatlaridan foydalanish uchun zarur nutqiy va lingvistik kompetensiyalarni shakllantirishdir. Mazkur maqsadga erishish uchun fanni o‘qitish jarayonida quyidagi vazifalar hal qilinadi. talabalarni kundalik, o‘quv va madaniy hayotda o‘zbek tilida muloqot qilish, o‘zbek tilidagi ixtisoslikka oid o‘quv va ilmiy adabiyotlarni tushunib o‘qish, audio va videotasmalar (ma‘ruza kurslari, ilmiy suhbatlar) mazmunini, asosiy axborotni eshitib tushunish va tarjima qila olishga o‘rgatishda ularning o‘zbek adabiy tili me‘yorlariga muvofiq erkin muloqot qilishi uchun zarur bo‘lgan til (fonetik, leksik, grammatik, uslubiy) ko‘nikmalarini va nutqiy faoliyatning asosiy turlari: o‘qish, tinglash, gapirish va yozish malakalarini shakllantirish kabi bir qator maqsadlar “O‘zbek tilining sohada qo‘llanilishi” fanini mukammal egalashlari uchun belgilab qo‘yilgan.

Shuningdek, talabalarni “O‘zbek tilining sohada qo‘llanilishi” fani yuzasidan: o‘rganuvchini kundalik, rasmiy-idoraviy va ilmiy muloqotda o‘zbek tili muomala (etika) me‘yorlariga amal qilish, ixtisoslik va ijtimoiy-siyosiy, madaniy masalalarga oid monologik va dialogik (ma‘ruza, xabar, taqdimot, davra suhbat) muloqotda ishtirok etishga tayyorlashdan iborat.

Modul vazifalari: Talaba og‘zaki va yozma nutqi, o‘zbek tili (Davlat tili) haqida umumiy ma‘lumotlarga ega bo‘lishi, o‘zbek tilidagi atama va tushunchalari haqida premetiv bilimlarga ega bo‘lishi lozim.

Modulni tamomlagan talabalar quyidagilarda namoyon bo'ladigan bilimlarga ega bo'ladilar:

- oliy ta'limdagi tahsili va kasbiy faoliyatida foydalaniladigan o'zbek tilidagi rasmiy ish hujjatlari bilan ishlash ko'nikma va malakalarini rivojlantirish;
- maqola, ilmiy tezis, referat va shu kabi ilmiy matnlarni tahlil qilish, ularga shaxsiy munosabatini bildirishga, shu asosda ilmiy matn kompozitsiyasi, mazmuni, strukturasi haqida bilimlarga ega bo'lishga, ilmiy ijodga yo'naltirish;
- talabalarning o'zbek tilidagi manbalardan olingan axborotni ixtisosligiga mos mavzular bo'yicha ilmiy ishlar (tezis, referat, annotatsiya, rezyume) sifatida rasmiylashtirish, tanqidiy, tahliliy fikrlash va o'zbek tilida munosabat bildirish, o'z fikrini turli uslublar va nutqiy vaziyatlarda mustaqil ravishda bog'lanishli bayon eta olish, matnni ixchamlash, kengaytirish ko'nikma va malakalarini rivojlantirish;
- talabalarning o'zbek tilida og'zaki va yozma nutq savodxonligini rivojlantirishga qaratilgan lingvistik kompetensiyalarni takomillashtirish, muayyan nutqiy mavzular doirasida zaruriy grammatik bilimlar berish, fikrni ifodalashda turli sintaktik sinonimlardan foydalanishga yo'naltirish;

talabalarning jahon va milliy madaniyatga hissa qo'shgan buyuk allomalar ijodiy merosini o'rganishga, yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish va ularning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish bo'yicha ilgari surilgan 5 ta tashabbus tarkibidagi musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san'at yo'nalishlariga qiziqishini oshirish, tildan amaliy foydalanish malakalarini rivojlantirish.

“Dunyoni sonlar boshqaradi” mashg'uloti

Ushbu mashg'ulotni olib borish jarayonida talabalarning o'zbek tili alifbosini qay tarzda o'zlashtirib olganliklarini, sonlar orqali topshiriqlar berilganida latinlashgan o'zbek alifbosini ketma- ketlikda harflarni topib joylashtirishlari zarur bo'ladi. Sonlar harflarga aylantirilsa, topshiriq bajarilgan hisoblanadi.

	Kasb-hunarga oid so'zlarning raqamlarda ifodalanishi	Hosil bo'lgan kasb-hunarga so'zlarning nomi
1.	25,16,8,19,20,21,28,8	o'qituvchi
2.	27,8,5,14,10,14,17	shifokor
3.	16,20,17,20,21,28,8	quruvchi
4.	7,1,23,3,14,21,28,8	haydovchi
5.	5,20,3,2,14,11,28,8	fudbolchi
6.	10,20,19,20,2,22,14,13,1,28,8	kutubxonachi
7.	7,20,16,20,16,27,20,13,14,18	huquqshunos
8.	1,11,14,16,1,22,14,3,8,12,8	aloqa xodimi

9.	5,1,17,17,14,27	farrosh
1	8,27,2,8,11,1,17,12,14,13	ishbilarmon
1	12,20,7,1,13,3,8,18	muhandis
1	17,1,18,18,14,12	rassom
1	8,27,28,8	ishchi
1	7,1,12,27,8,17,1	hamshira
1	7,8,18,14,2,28,8	hisobchi

Raqamlarning gapda ifodalanishi:

19,25,16,20,21,28,8+25,24+8,27,11,1,17,8,13,8+4,17,19,1,17,14,16+19,20,6,1,19,3,8.- *To'quvchi o'z ishlarini ertaroq tugatdi.*

“Gap tuzish” mashg'uloti

Ushbu mashg'ulot orqali talabalar aqli charxlanadi. Bu topshiriqda talabalar uch guruhda ishlashadilar. Topshiriqni bajarish uchun 5 daqiqa, taqdimot uchun 1 daqiqa, jami 8 daqiqa vaqt ajratiladi. Har bir guruhga bitta plakat, marker va topshiriqlar yozilgan tarqatma kesma qog'ozlar tarqatiladi.

Savollar ushbu ko'rinishda beriladi:

Birinchi guruhga

S-5, B-6, S-6, T-6, G'-4, S-7, Q-5, B-6

Yuqoridagi ko'rsatilgan bosh harflari ushbu harflardan boshlanadigan so'zlardan topib gap hosil qiling? Ko'rib turganingizdek, 8 ta topshiriq berilgan, ya'ni 8 ta gap tuzishlari kerak. Tuzilgan gaplar quyidagicha bo'lishi mumkin:

1.S-5 **Salim** sallasini silab sandiqqa soldi.

2.B-6 **Bugun** Bo'riboy bilan Baltaboy bozorga bordi.

3.S-6 **Sevara** savzavotlarni Sanam singari savatlarga soldi.

4.T-6 **Toshtemir** tog'a tog'dan traktorda tosh tashidi.

5.G'-4 **G'ani** g'ildirakni g'izillatib g'ildiratdi.

6.S-7 **Salima** singlisi Sayyoraning sochini sochiqda sidirib siladi.

7.Q-5 **Qobul** Qahramonga qahrli qayrilib qaradi.

8.B-6 **Botir** baqaloq bolalariga baliq berib boqardi.

Namuna: 1.Bilasizmi bu borliqda birovga bunchalar bog'langanligimni, biroq baxtim bahor bulutlaridek bir-bir barbod bo'lganligini bugun bildim. 2.Temirchi temirdan taqani teshib tog'amga teshgan taqani toy tuyog'iga taqishni tayinladi.

“So'zlarni to'g'ri o'qiyman” mashg'uloti

Ushbu mashg'ulotda talabalar 4 guruhda mustaqil ishlashadilar. Har bir guruhga bitta plakat, flamaster va savollar yozilgan tarqatma qog'ozlar beriladi. Topshiriqni

bajarish uchun 5 daqiqa vaqt beriladi. Har bir guruhdan bir talaba taqdimot qilib berishlari kerak. Berilgan topshiriqdagi so'zlarning harflar joyi almashtirilgan. Talabalar o'zaro o'ylashgan holda so'zlarning harflarini joy-joyiga qo'yishsa, so'zlarning asl holati tiklanadi: Astu-**usta**, eilnot-**neolit**, elot-**tole**, dio-**oid**, afli-**alif**, amsh-**sham**, avjm-**mavj**, azno-**azon**, alta-**elat**, ant-**tan**, zimo-**imzo**, o'gaz-**o'zga**, aimort-**imorat**, ane-**ena**, noziqo'qorri-**qo'ziqorin**.

"So'zlarni boyitish" mashg'uloti

Mashg'ulotda ikki harfdan iborat 10 so'z tanlab olinadi. Ikkita harfdan tashkil topgan so'zlarning old qismiga bir harf qo'shib, o'sha so'zni boyitish lozim. Masalan: osh so'zini olaylik, ushbu so'zning old qismiga alifbo tartibidagi harflardan mosini qo'yib so'zni boyitish mumkin. Osh- *bosh, dosh, mosh, shosh, qosh, tosh, yosh, fosh* va hakoza.

Shuningdek, oy, ol, in, ur, o'r, it kabi so'zlarni boyitishda quyidagicha so'zlar hosil bo'ladi. Oy- *boy, hoy, toy, voy, choy, moy, soy, joy, loy, yoy*; ol- *bol, dol, sol, tol, chol, hol, xol, mol, shol*; in- *din, chin, qin, jin, tin, min*.

"Omadli chipta" mashg'uloti

Mashg'ulotni o'tkazish uchun talabalar uch guruhga bo'linishadi. Har bir guruhda bitta yoki, ikkita talaba ishtirok qilishi mumkin. Quyidagi ikkita ustundan talabalar hohlagan bitta raqamini tanlashadi. O'sha raqam tagidagi so'zlar o'zaro mos kelishsa, o'sha o'quvchilar "Omadli chiptaga" ega bo'lishgan sanaladi. Masalan, aytaylik, 1-guruh talabalari birinchi ustundan 3 raqamini tanladi, ikkinchi ustundan 12 raqamni tanlashdi. Raqamlar ostidagi so'zlarni taqqoslab, solishtirib ko'ramiz. Quyidagi so'zlar hosil bo'ladi: 3 raqam-**yaxshi qiz**, 12 raqam- **Zumrad**. Demak, o'z-o'zidan ma'lumki, ushbu talabalar g'olib salnashadi. Tanlashgan raqamlar orqasida xuddi o'sha yozuvlar bor edi-da. Shu tariqa mashg'ulot davom ettiriladi. Talabalar tanlashgan raqamlardan o'zaro mos so'z chiqishmasa, "Omadli chipta"dan xafa bo'lish yo'q. Bu shunchaki, o'yin, tasodiflar hayotda bo'lib turadi. Masalan: 2-guruh o'quvchilari o'ynalmagan raqamlardan birinchi ustundan 7 raqamini, ikkinchi ustundan esa 17 raqamni tanlashdi deyaaylik. Javob quyidagicha: 7 raqam orqasida- **osmondan yog'iladi**, 17 raqam orqasida esa -**xo'roz** so'zlari yozilgan. O'z-ozidan ma'lumki so'z bir-biriga mos emas, so'zlar o'zaro bog'lanmagan. G'olib bo'lgan talabalar rag'rbatlantirilib, sovg'alar berilsa, yanada yaxshi.

№	Birinchi ustun	№	Ikkinchi ustun
1.		11.	
2.		12.	
3.		13.	
4.		14.	
5.		15.	
6.		16.	
7.		17.	
8.		18.	

9. 19.
 1 20.
 0

Ushbu mashg'ulotda raqamlarning orqasiga yashiringan so'zlar quyidagilar:

№	Birinchi ustun	№	Ikkinchi ustun
1.	Tabiiy ofat	11.	Yomg'ir
2.	Qimmatbaho metal	12.	Zumrad
3.	Yaxshi qiz	13.	Oltin
4.	Ertalab uyg'otadi	14.	Afandi
5.	Hazl qahramoni	15.	Ona
6.	Oqi, sarig'I, qorasi	16.	Navoiy
7.	Osmondan yog'iladi	17.	Xo'roz
8.	Mo'tabar zod	18.	Dev
9.	Eng xunuk kampir	19.	Yolmog'z
1	O'zbek tilining asoschisi	20.	Zilzila
0			

“Mening ham o'z fikrim bor” mashg'uloti

Ushbu mashg'ulot avditoriyadagi har bir talaba uchun muhim sanaladi. 6 ta mustaqil topshiriqdan iborat bir varag'dagi chizmadagi topshiriq har bir talabaga topshiladi. Talabalar o'zlari mustaqil ravishda topshiriqdagi savollarga yozma tarzda javob berishlari zarur.

Mashg'ulotni bajarishlari uchun talabalarga 30 daqiqa vaqt beriladi. Keyin har bir talabaning topshiriq yuzasidan o'z taqdimoti o'tkaziladi.

O'zi yaxshi ko'rgan biror narsaning rasmini (surati)ni chizishi kerak	Odamlardagi men qadrlaydigan uchta fazilat:
Oilasi haqida ma'lumot	Odamlardagi men qabul qilishim qiyin bo'lgan uchta xislat:
Talabaning qiziqishlari (Habbiyi)	Mening orzularim

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, talabalarga “O'zbek tilining sohada qo'llanilishi” fanini o'qitishda yuqoridagi kabi innovatsion mashg'ulotlar orqali darslar tashkil

etilsa, talabalar uchun ham qiziqarli va mazmunli bo'lardi. Shubhasiz, bu jarayonda talabalarning aqli charxlanadi, o'z ustida mustaqil ishlashga, izlanishga, dars jarayonida olgan ma'lumotlari yuzasidan fikr yuritishga imkon tug'iladi.

Darhaqiqat, har bir mashg'ulotimizning samarali va mazmunli tashkil qilinishi fan professor-o'qituvchilarning o'z qo'lida.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Muhiddinova X., Salisheva Z., Po'latova X. O'zbek tili (oliy ta'lim muassasalari rus guruhlar uchun darslik). - Toshkent: O'qituvchi, 2012. - 288 b.
2. Normatova SH., Abdurahmonova M. O'zbek tili. Darslik. - Toshkent: JIDU, 2014. - 192 b.
3. Fayzullayeva SH., Azimova H., Usmonova G. O'zbek tili (oily o'quv yurtlarining iqtisodiy ta'lim yo'nalishlari talabalari uchun o'quv qo'llanma). - Toshkent: Iqtisodiyot, 2012. - 108 b.
4. Yuldasheva SH., Kabulova D., Sobirova M. O'zbek tili. O'quv qo'llanma. - Nukus: Bilim, 2013. - 156 b.
5. Husanov N., Xo'jaqulova R., Dilmurodova N. O'zbek tili. Darslik. - Toshkent: "IQTISOD-MOLIYA", 2020. - 515 b.
6. Husanov N., Xo'jaqulova R., Dilmurodova N. O'zbek tili O'quv qo'llanma. - Toshkent: TMI, 2017. - 336 b.
7. Aminov M., Madvaliyev A., Mahkamov N., Mahmudov N. Ish yuritish (amaliy qo'llanma)- Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2014.- 456 b.
8. Rafiyev A., Mahmudov N., Yuldashev I. Nutq madaniyati va davlat tilida ish yuritish. - Toshkent, 2013. - 143 b.
9. O'zbek tilining izohli lug'ati (5 jildli) - Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 2005-2008.
10. Xolmuratov.I., Musayeva S., Kosimbetova K., Smaylova D. O'zbek tilini o'qitishda innovatsiyon mashg'ulotlar.-Nukus: "Bilim", 2020.-119 b.